



SALOMATLIK – TUMAN BOYLIK

ЗДОРОВЬЕ НАРОДА — БОГАТСТВО СТРАНЫ

PEDIATR

№ 1-2 (940-941) 18-yanvar, chorshanba 2023-yil	TOSHKENT PEDIATRIYA TIBBIYOT INSTITUTI MEHNAT JAMOASI NASHRI ОРГАН ТРУДОВОГО КОЛЛЕКТИВА ТАШКЕНТСКОГО ПЕДИАТРИЧЕСКОГО МЕДИЦИНСКОГО ИНСТИТУТА	Gazeta 1974-yil martdan chiqqa boshlagan
--	---	--

SIFATLI TA'LIM –TARAQQIYOT ASOSIDIR

B. T. DAMINOV,
ToshPTI rektori,
Xalq deputatlari Toshkent
shahar kengashi deputati

Muxtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev “Ta’lim sifatini oshirish Yangi O‘zbekiston taraqqiyotining yakkeyu yagona to‘g‘ri yo‘lidir!” — deya bu yilgi davlat dasturining yo‘l xaritasini belgilab berdilar.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining bu yilgi Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga yo‘llagan murojaatnomasi har bir qalbi uyg‘oq, vatanga daxldorlik hissi bilan yashayotgan shaxslar uchun muhim dasturil amal bo‘ldi. Yurtimiz milliy rivojlanishning yangi davriga dadil qadam qo‘ymoqda. Hayotimizning barcha jabhalarida ulkan o‘zgarishlar yuz bermoqda. Bu yil aholimiz 36 milliondan oshdi. Har yili safimizga qariyb 900 ming yangi avlod qo‘shilmoqda. Xalqimizning har bir a‘zosi tinch va farovon hayot kechirishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratish yo‘lida davlatimiz tomonidan muntazam ravishda katta islohotlar amalga oshirib kelinmoqda. Murojaatnomada yakuniga yetayotgan 2022-yil g‘oyat murakkab va sinovli yil bo‘lganini, bu taraqqiyotga — faqat mashaqqatli va jasoratli mehnat orqali erishilishini yana bir bor isbot etganini ta’kidladilar.

Darhaqiqat, pandemiya, dunyodagi chuqur iqtisodiy va siyosiy inqirozlar, ziddiyatlarga

qaramasdan, xalqimizning qahramonlarcha mehnati bilan davlatimiz rahbarining keng ko‘lamli va samarali islohotlari natijasida yalpi ichki mahsulot hajmi ilk bor 80 milliard dollardan oshdi. Iqtisodiyotimizga shu yilning o‘zida 8 milliard dollar to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar kirib keldi, eksportimiz esa, 19 milliard dollarga yetdi. Bunday katta natijalar ilgari bo‘lmagan.

O‘tgan yilda inson qadrini ulug‘lash ustuvor masala bo‘lib, mamlakat tarixida ilk bor pensiya va ijtimoiy nafaqalar miqdorini minimal iste‘mol xarajatlaridan kam bo‘lmagan darajaga olib chiqildi. Murojaatnomada ta’kidlangandek, 2017-yilda kam ta‘minlangan 500 ming oila ijtimoiy yordam olgan bo‘lsa, bugunga kelib 2 milliondan ortiq oilalarga ko‘mak berilmoqda. Ajratilayotgan mablag‘lar esa, 7 barobar ko‘paytirilib, yiliga 11 trillion so‘mga yetgan. Ish haqi, pensiya va nafaqalar miqdorini, aholi jon boshiga daromadlarni oshirish siyosati izchil davom etdirilishi xalqimiz uchun muhimdir. Chunki inson qadri, insonni e‘zozlash – davlatimiz oldidagi, e‘tiboridagi eng asosiy masala.

Kirib kelayotgan yangi, 2023-yilga yurtimizda “Insonga e‘tibor va sifatli ta’lim yili”, deb nom berishi chin ma’noda xalqimizni quvontirdi. Sababi O‘zbekistonda olib borilayotgan davlat siyosatining markazida inson va uning manfaatlarini ta‘min-

lashni ustuvor vazifa etib belgilanganidir. Bu siyosat bir yil bilan cheklanib qolmasligi, doimo bardavom bo‘lishi bilan ahamiyatlidir.

Vatanimizning eng bebaho boyligi, bu — bunyodkor xalqimiz, duogo‘y ota-onalarimiz, navqiron avlodimiz ekanligini Yurtboshimiz: “Shu yurtda yashayotgan har bir insonning tinch va baxtli hayot kechirishi, uning sog‘lig‘i joyida bo‘lishi, yaxshi ta’lim olishi, oilasini tebratishi uchun qanday sharoit kerak bo‘lsa, hammasini yaratib berishga harakat qilyapmiz va bu yo‘ldan aslo to‘xtamaymiz. Ta’lim sifatini oshirish — Yangi O‘zbekiston taraqqiyotining yakkeyu yagona to‘g‘ri yo‘lidir”, — dedilar. Shuning uchun ushbu sohada boshlagan islohotlarimizni davom ettirishda ta’lim dargohlari-ning o‘quv-tarbiya ishlari sifatini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar ishlab chiqilib, ustuvor vazifalar belgilanmoqda.

2023-yildagi ustuvor yo‘nalishlardan ikkinchisi Yangi O‘zbekistonni “ijtimoiy davlat” tamoyili asosida qurish maqsadidir. Buni Konstitutsiyada mustahkamlash belgilangan. Ijtimoiy davlat bu, eng avvalo, inson salohiyatini ro‘yobga chiqarish uchun teng imkoniyatlar, odamlar munosib hayot kechirishiga zarur sharoitlar yaratish, kambag‘allikni qisqartirish, demakdir. Prezidentimiz, birinchi navbatda, e‘tiborni Yangi O‘zbekiston uchun eng katta investitsiya bo‘lgan ta’limni qo‘llab-quvvatlashga qaratish lozimligini ta’kid-

ladilar. Darhaqiqat, ma'rifatparvar jadid bobolarimiz aytganlaridek: "Najot — ta'limda, najot — tarbiyada, najot — bilimda. Chunki, barcha ezgu maqsadlarga bilim va tarbiya tufayli erishiladi". Shu bois, Yurtboshimiz maktablarda ta'lim sifati hamda jamiyatda o'qituvchi kasbining nufuzini oshirish, muallimlarning sharoitlarini yaxshilash 2023-yildagi eng asosiy vazifalarimizdan biri bo'lishini belgilab berdilar.

Bugungi kunda o'quvchilarda erkin va kreativ fikrlashni, jamoada ishlash va muloqot ko'nikmalarini shakllantirish zarur. Bu borada Prezident maktablarida 130 ta mamlakatda ma'qullangan "A-level" ta'lim dasturi yo'lga qo'yilgani o'z samarasini bermoqda. Bu jarayonda har bir o'quvchi o'zining qobiliyatiga qarab, aniq yo'nalishlar bo'yicha chuqur o'qitiladi, dunyoning nufuzli oliygohlariga kirish imkoniyatlari kengayadi. Shu bois, 2023-yildan maktab ta'limini xalqaro ta'lim dasturlari asosida butunlay isloh qilish eng ustuvor yo'nalishdir. Bu ishlarni tizimli yo'lga qo'yilishi natijasida yangi darsliklarni ishlab chiqish, ilg'or ta'lim standartlari va metodikalarini joriy etish uchun alohida ilmiy institut va laboratoriyalar tashkil qilinishi hamda milliy o'zligimiz timsoli, ma'naviyatimiz asosi bo'lgan ona tilimizga e'tibor yanada kuchaytirilishi belgilangan vazifalarni amalga oshirishda asos, mustahkam tayanch bo'ladi.

Murojaatnomada kelgusi yili 70 ta yangi maktab qurilishi, 460 ta maktab kengaytirilishi aytiladi. Xususi investitsiyalar ishtirokida 100 ta maktab qurish loyihalari boshlangani, kelgusi besh yilda ularning sonini 1 mingga yetkazish ko'zda tutilgani ta'lim sifati oshirishda muhim shart-sharoitlar yaratilayotganidan dalolatdir.

Shuni alohida aytish joizki, yil boshidan Qoraqalpog'iston

va Xorazmda 285 ming nafar boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun bepul ovqatlanish yo'lga qo'yilgandi. Bu borada yetarli tajriba orttirildi. Kelgusi o'quv yilidan boshlab ushbu amaliyot qolgan viloyatlar va Toshkent shahri maktablarida ham joriy etilishi va buning uchun 2,3 trillion so'm ajratilayotgani bir tomondan xalqni ijtimoiy qo'llab-quvvatlashga xizmat qilsa, bu jarayonlarni shaffof tizim asosida tashkil etish, farzandlarimizni sog'lom va sifatli ovqat bilan ta'minlash ta'lim sifati samaradorligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Izchillik tamoyiliga tayangan holda ta'lim sohasidagi navbatdagi muhim yo'nalish, bu — yoshlarning zamonaviy kasb-hunar egallashi uchun barcha zarur shart-sharoitlarni yaratishdir. Maktab bitiruvchilarining 50 foizi mehnat bozoriga hech qanday kasbga ega bo'lmasdan kirib kelayotgani og'riqli holat edi. Shu bois, 700 dan ortiq kasb-hunar maktabi, kollej va texnikumlar imkoniyatidan samarali foydalanish maqsadida 2023-yildan boshlab yangi dastur amalga oshirilishi belgilandi. Unga ko'ra, har bir viloyatda 1 tadan texnikumda Yevropa kasbiy ta'lim standartlari joriy etiladi. Kelgusi besh yilda barcha kollej va texnikumlar ushbu tizim bilan qamrab olinadi.

Prezidentimiz shu bilan birga, iqtidorli yoshlarni qo'llab-quvvatlashni kengaytirishni ta'kidlab: "Kimyo sanoati, elektr texnikasi, transport va energetika sohalarida nufuzli xalqaro tashkilotlar bilan birga, alohida Muhandislik maktablari tashkil qilinadi. Bu tizim bizda hozirgacha bo'lmagan. Lo'nda aytganda, yangi zamon injenerlari tayyorlash tizimini yarata-miz", deya — kelajak bunyodkorlari bo'lgan yoshlarimiz uchun imkoniyatlar ko'lami yanada kengaytirilishini aytdilar.

Shuningdek, so'nggi yillarda oliygohlar 2,5 barobar ko'payib, 198 taga yetdi, qamrov darajasi 9 foizdan 38 foizga oshdi. Ta'lim sifati oshirishga har bir oliygoh o'zi harakat qilishi lozim, o'shanda natija bo'ladi. Bu borada 41 ta oliygohga akademik va moliyaviy mustaqillik berildi, ularda transformatsiya ofislari ochildi.

Oliyogoh rektorlari, professor va o'qituvchilar bu jarayonlarda faol bo'lishlari, yangi, ilg'or metodikalarni joriy qilishlari kerakligi aytilib, kelgusi yilda oliygoh talabalari uchun imtiyozli ta'lim kreditlariga resurslar 2 barobar ko'paytirilib, 1,7 trillion so'm ajratilishi ko'zda tutilgan. Bu yil ilm-fan va innovatsiyalarga 1,5 trillion so'm yo'naltirilayotgani soha mutasaddilariga mas'uliyat yuklaydi. Bu — 2017-yilga nisbatan qariyb 6 barobar ko'p, deganidir. Olimlarning ish haqi ham 4,5 barobar oshirilishi belgilangani ilmiy samaradorlikni oshishiga katta ta'sir ko'rsatadi. Endi olimlarimiz barcha sohada, ayniqsa bugungi kunda biz uchun dolzarb yo'nalishlarda aniq natijalar ko'rsatishlari kerak bo'ladi.

Ustuvor yo'nalishlardan biri xalqimizning malakali va sifatli tibbiy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini yanada kengaytirish bo'lib, avvalo, bepul tibbiy yordamning kafolatlangan hajmi qonun bilan belgilanadi. Bu ham mamlakatimiz aholisining har jihatdan qadr va e'tiborda ekanligini bildiradi.

Kirib kelayotgan 2023-yilda aholi salomatligini saqlash va mustahkamlash yo'lidagi islohotlar yanada rivojlanishiga ishonamiz. Bu yo'lda samarali xizmat qilib kelayotgan yurtdoshlarimizni, institutimiz jamoasini va talaba yoshlarimizni kirib kelayotgan Yangi yil bilan tabriklayman! Yangi yilda barchaga yuksak martalar yor bo'lsin!

PROREKTORIMIZ - «MA'NAVIYAT FIDOYISI»



2022-yil 16-dekabr kuni Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi, «Ma'rifat» targ'ibotchilar jamiyati tomonidan «Ma'naviyat fidoyisi» ko'krak nishoni topshirishga bag'ishlangan tantanali marosim o'tkazildi.

Tadbirda mamlakatimiz ma'naviy-ma'rifiy hayotida eng muhim o'rin egallagan, ushbu soha rivojida o'zining fidokorona mehnatlari orqali munosib hissa qo'shib kelayotgan 96 nafar nomzodga «Ma'naviyat fidoyisi» ko'krak nishoni topshirildi.

Mukofotlanganlar qatorida Toshkent pediatriya tibbiyot institutining Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha birinchi prorektori Muborak Ahme-

dova ham «Ma'naviyat fidoyisi» ko'krak nishoni bilan taqdirlandi.

Falsafa fanlari nomzodi, dotsent Muborak Ahmedova qariyb 45 yildirki, ToshPTIda o'z fidokorona mehnat faoliyatini davom ettirmoqda. Institut jamoasida o'zining munosib o'rnini topgan Muborak Ahmedova bugungi kunda yuqori ilmiy salohiyati, intiluvchanligi, tashabbuskorligi hamda ustozlar-cha mehribonligi bilan Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha birinchi prorektor vazifasida samarali faoliyat yuritib kelmoqda. Mehnat faoliyatini 1979-1981-yillarda O'rta Osiyo tibbiyot pediatriya instituti falsafa kafedrasida katta laborantligidan boshlagan yosh faylasuf ushbu institutda falsafa kafedrasida o'qituvchisi, katta o'qituvchisi, falsafa kafedrasida dotsenti, O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti kafedrasida mudiri lavozimlarida davom ettiradi. Jamoada va talaba yoshlar o'rtasida

yuksak hurmat qozongan falsafa fanlari nomzodi, dotsent Muborak Ahmedova o'nlab o'quv-uslubiy qo'llanmalar, yuzlab ilmiy maqolalar muallifi hamdir. Olimaning ustoz sifatida yetishtirgan yuzlab shogirdlari bugun yurtimizning turli hududlarida ilm-fan yo'lida mamlakat rivojiga munosib hissa qo'shib kelishmoqda. Oqilona idrok-u tafakkuri, yuksak pedagogik qobiliyati, uzoqni ko'ra oladigan rahbarlik qobiliyatini namoyon qila olgan Muborak Ahmedova 2007-2018-yillarda Toshkent pediatriya tibbiyot instituti ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha prorektori, 2018-yildan esa Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha birinchi prorektor lavozimlarida samarali faoliyat olib bormoqda. Yoshlar ma'naviyatini yuksaltirishdek ma'uliyatli va xayrli ishlari bardavom bo'lsin. Ustozga doimo yuksak marralar yor bo'lsin!

Muborak Ahmedovani ushbu mukofot bilan institut jamoasi nomidan qutlaymiz va bundan keyingi faoliyatiga omad tilaymiz!

Dilafro'z CHORIYEVA

ZAKOVAT — ILM KUCHI



Bugungi globallashuv davrida yashayotgan insonlarning, aql-zakovati turlichadir. Dunyoqarashning kengayishi, yangi bilimlarni o'zlashtirish orqali, jamiyatdagi turli qatlam vakillarining bilim salohiyati oshib kelmoqda. Bunga asos qilib esa, mamlakatimizda yuqori

darajada o'tkaziladigan, o'zbek "poweri" ya'ni "kuchi" bo'lgan, "Zakovat" intellektual loyihasini ayta olamiz. Bu o'yin aynan bilimdonlar kuch sinashadigan maydon. Shu o'rinda qomusiy olim – Yusuf Xos Hojibning purma'no hikmati yodga tushadi: "Zakovat bor joyda ulug'lik bo'ladi, Bilim bor joyda buyuklik bo'ladi".

So'nggi bir yil davomida bu loyihaga juda katta e'tibor va imkon berildi. Mamlakatimizning barcha viloyatlari va shaharlarida "Zakovat"ning saralash bosqichlari o'tkazildi. Aynan shu dastur tasarrufida bir yildan buyon, turli soha vakillari doirasida o'tkazib kelinayotgan

"Breyn -ring" turnirida TOSHPTI jamoasi ham ishtirok etib 3-o'rin sohibi bo'ldi. Shu bilan bir qatorda, institut jamoasiga 40 mln so'm miqdoridagi pul mukofoti topshirildi. "Bilim dargohimizning mavqeyi uchun hissa qo'shganimiz biz talabalar uchun sharaftir", – deydi jamoa a'zosi 1-pediatriya va xalq tabobati, pediatriya ishi fakulteti talabasi Fotima Norqo'ziyeva. G'alaba – institut hayotidagi e'tiborga loyiq katta yutuqlardan biridir.

ToshPTI dovrug'ini ko'klarga ko'taradigan talabalarimizga har qanday tanlov va bellashuvlarda omad yor bo'lsin.

YURT KELAJAGI – ISHONCHLI QO‘LLARDA



O‘zbekiston yoshlari qay sohada bo‘lmasin, o‘z o‘rnini topgan, intiluvchan va qobiliyatlidir. Bugun, vatanimiz nomini tarix zaravaraqlariga muhrlayotgan har bir farzandning, ko‘zida shijoatni, qalbida insonparvarlik tuyg‘ularini his etish mumkin. Ular turli yo‘na-

lishlarda, respublika hamda dunyo miqyosida bo‘layotgan bellashuvlarda yaxshi natijalarga erishib, O‘zbekistonning faxriga aylanmoqda.

Mana shunday sharafli burchni bajarib kelayotgan yoshlar orasida, bir guruh ToshPTI talabalari

ham bor. 2022-yil 30-noyabr kuni Toshkent tibbiyot akademiyasida o‘tkazilgan, “Tibbiyot mohirlari” amaliy ko‘nikmalar bo‘yicha xalqaro olimpiadasida institutning 8 nafar iqtidorli talabalari qatnashib 3-o‘rinni egalladilar. Tanlovda ishtirok etgan, mashaqqatli yo‘lni bosib o‘tib, ToshPTI ravnaqi uchun hissa qo‘shgan: Xusniddin Roziqov, Munisa Ortiqova, Abdug‘ani Karimov, hamda faol talabalarimizdan biri Nargis Xolovalar institutning yuzi bo‘lgan talabalar desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Shogirdlarining bu darajaga ko‘tarilishida oliy ta‘lim muassasamizning professor, dotsentlarining o‘rni beqiyosdir.

Jamoaning keyingi tanlovlardagi muvaffaqiyatlari ham bardavom bo‘lishini tilaymiz.

ONA YURT OSMONINING SARLOCHINLARI



Yer yuzining qay yerida bo‘lmasin odamlarda ona yurtga sadoqatli bo‘lish tuyg‘usi yaxshi shakllantirilgan. Tug‘ilib o‘sgan, diyorimiz uchun sodiq farzand bo‘lish esa, barchamizning unutilib bo‘lmas vazifamizdir. Uning tinchligi-yu, farovonligi haqida, qayg‘urish esa, ko‘proq shu yurt farzandi bo‘lgan yigitlarning zimmasidadir. Mustaqil O‘zbekistonimizning har qarich tuprog‘ini ko‘z qorachig‘iday qo‘riqlayotgan O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil etilganiga ham 31 yil to‘ldi. Albat-

ta, bu oz fursat emas. Mashaqqatli yillarni, qancha sinovlarni yengib o‘tgan yurtimizning, bugungi tinch-totuv kunlarida Milliy armiyamizning mas‘uliyati katta.

14-yanvar «Vatan himoyachilari kuni» munosabati bilan, Toshkent pediatriya tibbiyot institutida tadbir o‘tkazildi. Kechaga tibbiyot sohasida ko‘p yillar xizmat qilgan polkovniklar, faxriy harbiylar taklif qilindi. Tadbir davomida so‘zga chiqqan O‘quv ishlari prorektori K.N. Xaitov, Davolash ishlari prorektori A.A. Djalilov hamda, Yoshlar masalalari va ma‘naviyatma‘rifiy ishlar bo‘yicha prorektor M.A. Ahmedovalar kasb faxriylarini hamda institutning professor-o‘qituv-

chilari, talaba yigitlarini bayram bilan qutlashdi. Tibbiyot xizmatining iste‘fodagi polkovniklari ham so‘zga chiqib, harbiy xizmatchilarning sharafli burchlari, kasbdagi mashaqqatlari va bugungi kunda Qurolli kuchlar imizga bo‘lgan e‘tibor va e‘tirof haqida iliq fikrlar bildirishdi.

Bugun mana shu tuproq uchun, ona yurt uchun ko‘ksini qalqon qilib, mardona turgan himoyachilarimizga tashakkur aytamiz. Siz hamisha el ardog‘idasiz.



BOSHQALARNI YORITIB, O‘ZIM YONAMAN...

Bahodir yoshligida onasidan ajraladi. Bu voqeani u juda yaxshi eslaydi. Iyun oyida oromgohda dam olishda edi, boshi qattiq og‘riydi, rosa yig‘laydi, unga ukol qiladilar. Ikki soatcha uxlab turgach, yana yig‘lagisi kelaveradi. Shu holatda 3 kun yuradi. Bir haftadan so‘ng tumanidagi mas‘ul kishi hammani shaharga olib chiqib, muzqaymoq olib berdilar. Bahodir esa chetga chiqib oladi, muzqaymoqni ham yemaydi. Avtobus uylari oldida to‘xtaydi, uni tushirishadi. Bahodir eshikdan uyga kirib “Ona, onajon men keldim”, – deb chaqirsa-da, hech kim javob bermaydi. Uyda o‘tirgan ammasi uni quchib “Kel jonim bolam, keldingmi? Onang shifoxonada. Keyin borib ko‘rib kelamiz”, – deydi ko‘ziga yosh olib. Bahodir esa “Biron narsa beringlar, onajonimni ko‘rib kelaman. Juda ham sog‘indim”, – deb yig‘lasa, uydagilar xo‘ngrab yig‘lab yuborishadi: “Onang boshqa yo‘q, bolam”. O‘shanda Bahodir 8 yoshda edi.

Bahodirning onasi Oliya-xonning kasbi o‘qituvchi bo‘lgan. Uning tez-tez kasal bo‘lishi o‘g‘lini ToshMIga boshlagan bo‘lsa ajab emas. Onalari “O‘g‘lim, a‘lo o‘qigin, sen shifokor bo‘lishing kerak”, – deb har kuni qayta-qayta ta‘kidlar edilar.

Dunyoda qarzlarning turi ko‘p ekan. Kimdandir olgan pul-mol qarzing. Qarindosh-urug‘, jigarlar-ring, yor-u do‘stlar oldidagi to‘yona, mehr-u oqibat qarzi. El-u yurt, Vatan oldidagi farzandlik burchi zimmangga yuklaydigan qarz... Ammo, ota tuzi, ona suti, ularning mehr-u muhabbati, seni deb, chekkan azob-u zahmati oldidagi farzandlik qarzi insonni bir oz o‘ylantirib qo‘yar ekan. Chunki, bu qarz, aslida uzib bo‘lmas qarz. Biroz beparvo, loqayd farzandlar uchun bu qarz bir umrlik armonga aylanib qoladigan qarz.

“Onamga farzand bo‘lib nima qildim?” degan savol Bahodirni hozirgacha qiynab kelmoqda. Ba‘zan o‘zini tinchitish maqsadida, onasiga bergan va‘dasini: a‘lo o‘qish, chiroyli yozish, oliy ma‘lumotli bo‘lish, olim va shifokor bo‘lish haqidagi gaplarini eslaydi. Onajoni qo‘llariga ruchkani ushlatib harflarni shoshmasdan chiroyli qilib yozishni, o‘qishni o‘rgatardilar. Har kuni birgalikda ikki soatdan dars qilishar edi. Bu manzara uning ko‘z oldidan muntazam o‘tadi.

1968-1970-yil... Bahodir ichki qo‘shinlar xizmatida askarlik burchini ado etib qaytadi. Riga shahrida serjantlar maktabini a‘lo baholarga tugatib, Ivdem shahridagi harbiy bo‘limda bosh feldsher bo‘lib xizmat qilayotganida postda turgan askar kasal bo‘lib qoladi. Bahodir uni davolashga otlanadi. Post daryoni narigi sohilida edi. Lozeva daryosi kengli keladigan 130 paromda o‘tayotganlarida tros uzilib, paromni oqizib keta boshlaydi. Bahodir trosga osilib 40 metr ga ko‘tariladi. O‘sha payt tashqaridagi harorat 8-10 S0 bo‘lgan...

1970-yilda Bahodir Xamidov harbiy xizmatni ado etib qaytadi va ToshMIga kirish uchun hujjatlarini topshiradi. Shunday qilib u ToshMIning pediatriya fakultetiga o‘qishga qabul qilinadi. O‘qib yurgan kezlari taqdir uni juda ko‘p bag‘ri keng va olijanob ustozlarga duch qiladi. Qariyb yarim asr o‘tib ketgan bo‘lsa ham Bahodir unga saboq bergan ustozlar – Raisa Berezovskaya, Vali Alimov, To‘lqin aka Buzrukov, Aleksandr Simonov, San‘at Azizova, Yevdokiya Shishova, Sayidolim Raximov, Abdumalik Dadamuxamedov, Aminboy Sulaymonov, Gayrat Islombekov, Erkin Ilyasov, O‘tkir Latipovlarni alohida minnatdorchilik bilan eslaydi.



“O‘zidan yaxshi xotiralar qoldiradigan insonlar baxtli odamlardir”, – degan kalomning naqadar haq ekanligiga imon keltiradi.

Uning xotirasida qolgan turli operatsiyalar bor. Bir kun navbatchilik vaqtida tez yordam mashinasida hayvonot bog‘ida ayiq tishlagan 14 yoshli bolani keltirishadi. Mehribonlik uyidan bir guruh bolalar eski hayvonot bog‘iga aylanishga kelishgan ekan. 14 yoshli Misha Zyomin panjara-dan sakrab o‘tib ayiqqa non bermoqchi bo‘lganda yirtqich hayvon uning qo‘lini tishlab yirtib tashlaydi. Bahodir Xamidov va boshqa jarrohlilar besh soat davomida operatsiya qilib bolaning o‘ng qo‘lini saqlab qolishadi. Yaraning bitishi 2 oyga cho‘zilib, ketma-ket operatsiyalar o‘tkazilgan edi o‘shanda. 11-noyabrda esa terini qayta o‘tkazish opearsiyasi bo‘lib o‘tgan.

Bahodir Xamidov onasiga bergan va‘dasiga muvofiq ilmiy ish boshlaydi. 1989-yilning may oyida doktorlik ilmiy kengashida nomzodlik dissertatsiyasini himoya qiladi. To‘rt oyda fan nomzodi diplomini qo‘lga oladi. O‘zini baxtli deb sezadi.

Bahodir Xamidovning fikricha shifokor shirinso‘z, har doim yuzida tabassum, bemorning holatini tushuna olishi va baholay bilishi, dardiga hamdard bo‘lishi, paypaslaganda og‘rigan sohalarigacha

chidab eshitishi, bergan savollariga to'liq javob berishi, tuzalishiga ishonitirishi zarur.

Bahodir Xamidovich hozirgi yoshlarni o'z davrida o'qigan talabalar bilan solishtirar ekan shunday xulosaga keladi. Avvalgi talabalar o'z oldilariga maqsad qo'yib yaxshi mutaxassis bo'lanman deb o'qishgan, stipendiyadan qolmaslik uchun intilishgan. Hozirgi talabalarning bir qismi bu jihatdan yondoshuvi mas'ulyatsiz. Ba'zan qizlarning tibbiyot institutiga kirishidan maqsadi yaxshi joyga kelin bo'lishiga, ko'p sovchi kelishiga, o'g'il bolalar bosh shifokor bo'lib, xususiy klinika ochish ekanligini eshitib, ularning asosiy fikri kasbiy yuksalish emasligidan xafa bo'lasiz. Ammo yaxshi o'qiydigan talabalar ham anchagina. Hozirgi yoshlar o'z hisobidan chet mamlakatlarida o'qishlari, malaka oshirishlari mumkin. Ikkinchi mutaxassislikka o'qib, himoya qilishlari uchun imkoniyat ham bor.

Qahramonimizni bolalar jarrohligiga yo'naltirgan inson – ustoz, tibbiyot fanlari doktori, professor A.S.Sulaymonovdir. Hadisi shariflarda “Ustozi yo'qning ustoz shaytondir”, “Bir soat ilm o'rganish bir kechalik ibodatdan afzaldir” kabi o'gitlarni ko'p uchratamiz. Hatto ibodat qilayotganimizda “Alloh, mening ota-onamni, ustozlarimni, jahondagi jamiki mo'minlar, mo'minalar, musulmalar va musulmlarni mag'firat qilgin”, deyimiz. Mutafakkirlarimizdan qolgan “Ustoz–otangday ulug'”, “Ustozning hoki poyi qoshing ustida bo'lsin” kabi maqollar va iboralar bor.

Bahodir aka bugun yozgan ishlarida, ixtirolarning barchasida mehribon ustozining beminnat xizmatlarini e'tirof etadilar. O'zining shaxs, inson, mutaxassis va amaliy operatsiya qiluvchi sifatida shakllanishiga beg'araz hissasini qo'shgan bag'rikeng va pokiza ustozlar qatorida professor Nurulla

Utegenov, dotsent G'ayrat Kaplanovich Islombekov nomlarini minnatdorchilik bilan eslaydilar.

Fan-texnika taraqqiyoti zamonasida tibbiyot fani ham yangi tekshirish va davolash usullari bilan boyib bormoqda. Ammo davodidagnostik asbob-uskunalar hech qachon shifokorning o'rnini bosa olmasligi aniq. Shifokor hamma vaqt o'zining jonli muloqoti va muomala madaniyati bilan bemor va texnika orasida ko'prik vazifasini o'tashi va mijozning yoshi, jinsi, e'tiqodi, mijozidan qat'iy nazar uning qalbiga yo'l topa olishi shart.

Klinik ordinatorlar Bahodir akaga turli savollar bilan murojaat qiladilar. Masalan: “Juda ham tez jahlim chiqadi, birovlarini xafa qilib qo'yaman, keyin o'zim qilgan ishlarimdan xafa bo'lib yuraman”. Ustoz esa hadisdan olgan misollar bilan javob qaytaradi: Rasullulloh g'azab kelaganida o'tirib olishni yoki gapirmaslikni maslahat berganlar. Jahl ustida nojo'ya gapirib ishning mag'zavasini chiqarib qo'yish juda oson. “Gap ichingdaligida u sening quling, tashqariga chiqqandan keyin esa sen uning quliga aylanasan,” degan maqol bejiz paydo bo'lmagan.

Ma'ruzadan so'ng bergan savollaridan biri: Tibbiy deontologiya va kasb etikasidan. “Yatrogeniya” nimaligi haqida bo'ladi.

Bahodir aka misol keltirib tushuntirishga harakat qiladilar: “13 yoshli bemor yonbosh sohasidagi bitmaydigan oqmadan shikoyat qilib kelganda tekshirib ko'rganlarida turli joylarda bir necha bor davolangan yarasi bitgan, ammo 2-3 oyda yana qaytarilib turgan. Operatsiyada jarohat tubida qolib ketgan salfetka olib tashlanadi, yara boshqa qaytarilmaydi. Deontologiyada “yatrogeniya” tushunchasi ko'p ishlatiladi. Bu tib xodimining farosatsizligi, ilmi sayozligi, nojo'ya ko'rsatmalari, qo'pol xatti-harakatlari, loqaydligi

tufayli paydo bo'lgan, ya'ni buyuk tib allomasi Gippokratning “Zarar keltirma” degan naqlining buzilishi oqibatida paydo bo'lgan kasalliklardir.”

Shifokor kelajak avlodni har tomonlama ziyoli qilib tarbiyalashda jamiyatning eng mas'ul xodimlaridan hisoblanadi. Bemor shifokor uchun eng qadrdon, eng yaqin kishisiga aylanib qolishi zarur. Shifokorning bemor qarindoshlari bilan muomala madaniyati ham yuksak bo'lishi lozim.

Shifokor tibbiyotning qaysi sohalarida faoliyat ko'rsatmasin, u o'z burchiga sodiq bo'lishi, bemorlarga, jabrlanganlarga xolis yordam ko'rsatishi sir-asrorini saqlay bilishi, o'zining bilim va mahoratini to'xtovsiz oshirib borishi lozim. Shifokorning muloqot madaniyati uning yuksak ma'naviyatidan darak beradi. Shifokor xuddi o'qituvchi va tarbiyachi kabi barcha xislat va xususiyatlari bilan bemorlar, ularning qarindosh-urug'lari oldida namuna bo'lishi lozim. O'zi tamaki chekib, spirtli ichimliklar iste'mol qiladigan, kiyim-kechak va tashqi ko'rinishiga e'tibor bermaydigan, o'ta semirib yoki ozib, rangi zahillashib qolgan shifokor qanday qilib mijozlariga namuna bo'la oladi.

Shu fikrlari bilan o'rtoqlashar ekan Bahodir Xamidov gollandiyalik taniqli shifokor Van Tyulp “Boshqalarni yoritib, o'zim yonaman”, degan jummalarni tibbiyotga belgi qilishni taklif etganida naqadar haq ekanligini eslaydilar.

Chindan ham shifokor o'zi yonib, atrofni yoritishi, samimiylikda, insoniylikda, haqiqatparvarlikda, burchga sadoqatda, Vatanni sevishda, xolislikda, poklikda, oqillik va odillikda jamiyatga namuna bo'lmog'i lozim. Bularsiz esa har jihatdan barkamol avlodni voyaga yetkazib bo'lmaydi.

Kavsar TURDIYEVA

BERDAQ – XALQ FAXRI

Berdaq qoraqalpoq xalqining mashhur demokrat shoiridir. U XIX asrda yashab ijod etgan. Shoirning asl ismi Berdimurod Qarg'aboy o'g'li (1827-1900) bo'lib, Berdaq uning taxallusidir. Mutafakkir to'g'risida ma'lumotlar kam saqlanib qolgan. Uning tarjimaiyoli holi va ijodiga oid ma'lumotlarni, asosan, o'zining asarlarida uchratish mumkin. U Orol dengizining janubida joylashgan Mo'ynoq tumanining Oqqala degan joyida dunyoga kelgan. Berdaq o'n yoshida otasi Qarg'aboy Bo'ronboy o'g'li va onasidan ayrilgach, amakisi Qo'chqorboyning qo'lida tarbiya ko'ra boshlaydi. Berdaq o'n yoshidan ovul maktabiga, maktabni bitirgandan so'ng o'z bilimini chuqurlashtirish maqsadida o'sha davrlardagi yirik ilm maskani hisoblangan Qoraqum eshon madrasasida tahsil olgan.

U yoshligidan boshlab she'r yozishni mashq qila boshladi. Xalq qo'shiqlari, turli afsonalar, ertaklar, maqol va matallar, dostonlar bilan tanishish, mashhur shoirlarning she'rlaridan bahramand bo'lish mutafakkir badiiy ijodini kamolga yetib shakllanishida muhim ahamiyat kasb etgan. Shunday qilib, Berdaq asta-sekin mashhur shoir va xalqqa tanilgan baxshiga aylanib borgan. Eng muhimi, she'rlariga o'zi kuy bastalab kuyay boshlagan.

Berdaq ko'p shaharlarga sayohat qilgan. Markaziy Osiyoning yirik shaharlarida bo'lgan. Urganch va Buxoroni ziyorat qilib, qadimiy yodgorliklar bilan tanishgan. Berdaq Alisher Navoiy, Fuzuliy va Maxtumquli ijodlarini chuqur o'rganib, she'rlarini mutolaa qilgan. Berdaq she'rlarining aksariyati kambag'al, beva-bechoralarning ayanchli hayoti, ularning og'ir mehnati, boy zodagonlarning ularga nisbatan qilgan shafqatsizligi, zo'ravonligi va adolatsizligiga bag'ishlanadi. Uning she'rlarida insonparvarlik, tenglik, adolat, vatanparvarlik, mehr, shavqat, qahramonlik va mardlik, mustaqillik, milliy ozodlik va haqiqat uchun kurash, mehr muhabbat kabi umuminsoniy va milliy qadiryatlar o'z aksini topgan.

Berdaqning she'r va dostonlari xalq ommasining turmushini xolisona va haqqoniy tasvirlab berish bilan ajralib turadi. Ayniqsa, Xiva xonligi va

Chor Rossiyasi hukumronligi davrida oddiy xalqqa nisbatan o'tkazilgan zulm-zo'rliklar shoirning bir qator she'rlarida ochiq tasvirlab berilgan. Shuning uchun u o'z zamonasidagi adolatsizlikdan, xon gumashtalaridan, soliq yig'uvchilardan, miroblarning o'zboshimchaligidan, inson qancha mehnat qilmasin, muhtojlikdan chiqarilmasligidan noliydi.

Chaqqon odim tashlab, mehnat qilmasang,

Kun ko'rmoqlik qiyin bo'ldi bu zamon.

Maqsadingga o'ylab-o'ylab yetmasang,

Qiyin bo'ldi kun ko'rmoqlik bu zamon.

Berdaq o'zining "Soliq", "Bo'lgan emas", "Bu yil" kabi she'rlarida xon va beklarning olib borayotgan siyosatini qoralaydi, ularning mehnatkash xalqqa nisbatan zulmini, shafqatsizligini tasvirlaydi. Berdaq insonni yuksaklikka ko'taradi, xalqni katta kuch ekanligini ta'kidlab, hukumron sinf vakillarini mehnatkash xalqni hurmat qilishga, ularga yordam berishga chaqiradi. Shoir o'zini xalqning ajralmas bir qismi, deb tasavvur qiladi.

So'zim o'lmas, doim tirik qolaman,

Xalqim bor-ku, yovdan o'chim olaman.

Berdaq o'zi yashayotgan tuzimni, uning tartiblarini tanqid ostiga oladi. Shoirning fikricha, mavjud siyosiy tizim mehnatkash xalqni haq-huquqlarini va manfaatlarini himoya qila olmaydi. Bunday tuzumda nafaqat adolatsizlik, insonga xilof illatlar hukm suradi. Shoir zolimlardan zorlanib bunday deydi:

Zolimlar tinglamas faqirning zorin,

Ular o'ylar o'z foydasin, o'z qornin.

Hech qachon zolimlar qo'ldagi borin,

Yep qo'rqmaslar, bor bo'lsa-da, xalq uchun.

Berdaq o'zining ijtimoiy-siyosiy masalalarga bag'ishlangan asarlarida, Sharqning boshqa mutafakkirlari kabi jamiyatni odil va ma'rifatli podshoh boshqarishi lozim, degan fikrga keladi.

Shoirning "Omongeldi", "Xalq uchun", "Oydo'stbiy", "Yaxshiroq", "Bo'lgan emas", "Ernazarbiy" asarlarida qoraqalpoq xalqining xonlar zulmi-ga qarshi qahramonona kurashi, milliy



ozodlik harakatlari aks ettirilgan. Berdaq inson o'z faoliyatida, xatti-harakatlarida maqsadga erishishda erkin ekanligini yozadi. Masalan, u "Axmoq podsho" dostonida ayrim boylar va amaldorlarning jabr zulimidan sabri to'lgan xalq o'z ixtiyori bilan ularga qarshi bosh ko'taradi, deydi.

Berdaq ijodiy merosida axloq, odob, nafosat va go'zallik muhim o'rinni egallaydi. Uningcha har bir odamning burchi, xalqqa va uning farovonligiga xizmat qilishdir. Shoirning axloqiy qarashlari markazida insoniylik turadi. Berdaq ko'p asarlarida bolalarni tarbiyalash, kattalarni hurmat qilish, o'z xalqiga muhabbat, xalqlar o'rtasida do'stlik g'oyalari ilgari suradi.

Berdaq qoraqalpoq xalqining mashhur shoiri, asl farzandidir. Qoraqalpoq istondagi ko'plab maktablarga, ko'chalarga, kutubxonalarga, shoirning nomi berilgan. Shuningdek, Berdaq nomidagi Qoraqalpoq iston davlat mukofoti tasis etilgan. Bu mukofot badiiy adabiyot, san'at va madaniyat sohasidagi eng yaxshi ishlarga beriladi. Shoirning yuksak insonparvarlik ruhi bilan sug'orilgan adabiy, ijtimoiy-siyosiy va falsafiy g'oyalari hozirda mustaqillik davrida ham o'z tarbiyaviy ahamiyatini yo'qotmagan. Shoirning yuksak adabiy merosini o'rganish va yosh avlodga yetkazish yo'lida Toshkent pediatriya tibbiyot instituti tomonidan ko'plab salmoqli ishlar amalga oshirilmoqda. Bu esa biz kabi talaba yoshlarning ma'naviyatini yuksaltirishda katta ahamiyat kasb etadi.

Axrorbek AKRAMOV,
II-pediatriya fakulteti,
309-guruh talabasi

KELAJAKDAN REPORTAJ



Assalomu alaykum!
Biz bugun ToshPTI dan
reportaj tayyorladik.
Bu bino XX asrning 70
yillarida qurilgan bo'lib,
to hozirgacha - XXIV
asrgacha saqlanib qolgan.
Bu institut XXIII asrning

50 yillarida tugatilgan. Bino esa Toshkent shahrining tarixiy obidasiga aylangan. Bino 4 qavat bo'lib XXI asrning barcha o'qitish talablariga javob bergan. Bundan tashqari oshxona, sport zal, kutubxona binolari mavjud. Ko'rib turganingizdek bino holati o'rtacha. Qayta rekonstruksiya qilish kutilmoqda. Har yili bu yerga milliondan ziyod turistlar kelib XX - XXIII asrlarda tibbiyot sohasida o'qigan talabalar hayotini o'z ko'zlari bilan ko'rib ketishadi. Bu vaqtlar mobaynida institutni har yili mingdan ziyod talabalar tamomlashgan. Ular oq xalat va qalpoqchalarda yurishgan. Har bir xonalar zamonaviy kompyuter va elektron doskalar bilan ta'minlangan edi. Lekin XXIII asrda bino eskirib, ta'mirtalab bo'lib qolgani uchun boshqa joyga ko'chirilgan. Bu reportaj sizlarga manzur keldi deb o'ylayman. Bizga berilgan vaqt o'z nihoyasiga yetdi. Yana ko'rishguncha salomat bo'ling!

Reportyor:

Moxidil ISROILJONOVA

Bizni tamosha qilib turgan barcha yurtdoshlarimizga alangali salom. Men Toshkent pediatriya tibbiyot institutining 1-kurs talabasiman. Men bugun o'zimning XXIV asrda institutimizni qanday tasavvur qilishim haqida sizlar bilan bo'lishmoqchiman. Mening tasavvurimda 300 yildan keyin talabalarga xalat va bosh kiyimsiz yurishga ruxsat beriladi. TashPTIning har bir bino va qavatida teleportatsiya uskunasini qo'yilgan. Nega desangiz? Men shunday javob beraman chunki bizning institutda 12 ta viloyatda kelgan talabalar o'qiydi. Ular o'z viloyatidan bemalol qatnashlari uchun, har bir viloyatda ham maxsus teleportatsiya vokzallari qurilgan. XXIV asrda qo'lida galoggromali telefonlarni ko'rishimiz mumkin. Va yana 3D texnologiyadagi formatlarini bemalol qo'l bilan ushlab ko'rish imkoniyatiga ega bo'lamiz. TashPTiga tashrifimiz yakunlandi. Xayr sog' bo'ling!

Reportyor: Diyora SAYFUDDINOVA

SIZNI UNUTMAYMIZ

**Berdaq Qarg'aboy o'g'li
xotirasiga bag'ishlanadi**

*Yurtning dardi ila yashagay har on,
Ko'rdi ko'p zahmatlar, chekdi ko'p fig'on.
Zo'ravonlik, tahqir-u musibatlar,
Bo'ldi bosqinlar-u, turfa tuhmatlar.
O'shal mudhishlig-u cho'ng zahmatlarni,
Berdaq aks ettirgan she'rlari ila.
Chidab turolmagay ushbu damlarda,
Dilda alam to'la, dilda dard to'la.
Kuylar elning dardin, der bir kun albat,
Har bir daqiqamiz bo'lgum farovon.
Ishonib, talpinib yashasak faqat,
Har atrof yashnagay misli bir bo'ston.
Deydi bizlar halol rizq-la yashasak,
Samodan go'yoki yog'iladi nur.
Garchi birdam bo'lsak, birga kurashsak,
Shunda bu ko'ngilda tug'ilar huzur.
Berdaq she'rlarini qilsam mutolaa,
Allohga shukurlar aytish boshlayman.
Ularda aks etar xalqdagi nola,
Ul damlarni o'ylab ko'zim yoshlayman.
Bu murg'ak qalblardan bo'lib nishona,
Bobomning she'rlari barhayot har on.
Bu yorug'olamni tak etsangiz ham,
Sizni unutmaymiz aslo bobojon.*

**Guljahon MELIQQO'ZIYEVA,
1-pediatriya va xalq tabobati fakulteti,
202-guruh talabasi**

O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi TOSHKENT PEDIATRIYA TIBBIYOT INSTITUTI

Professor-o'qituvchilar tarkibi bo'yicha quyidagi kafedralar lavozimlariga TANLOV e'lon qiladi:

KAFEDRA MUDIRI: Endokrinologiya va bolalar endokrinologiyasi.

DOTSENT: 1-Oilaviy shifokorlik, jismoniy tarbiya, fuqarolar muxofazasi; Oftalmologiya, bolalar oftalmologiyasi.

KATTA O'QITUVCHI: Ijtimoiy fanlar, pedagogika va psixologiya.

ASSISTENTLAR: Anatomiya patologik anatomiya; Ichki kasalliklar, nefrologiya va gemodializ; Fakultet pediatriya; Gistologiya, patologik fiziologiya; 2-Oilaviy shifokorlik, klinik farmakologiya.

Tanlov muddati – e'lon chiqqan kundan 1 oy. Manzilgoh: Bog'ishamol ko'chasi 223, Tosh PTI.

Avtobuslar: 115, 19 ToshPTI bekati. 18.01.2023.

<p>TOSHKENT PEDIATRIYA TIBBIYOT INSTITUTI MEHNAT JAMOASI NASHRI ОРГАН ТРУДОВОГО КОЛЛЕКТИВА ТАШКЕНТСКОГО ПЕДИАТРИЧЕСКОГО МЕДИЦИНСКОГО ИНСТИТУТА</p>	<p>Tahrir kengashi: D.A. Asadov, A.V. Alimov, X.F. Haydarov, M. Ahmedova, K.N. Haitov, S.S. Gulyamov, D.T. Ashurova, A. Rahmatullayev, S. Nurxodjayev A. Valiyev, A. Nosirov, D. Choriyeva, Nashr uchun mas'ul: M. Abduhamidova</p>	<p>Bosh muharrir: B.T. DAMINOV Tahrir hay'ati: (ishchi guruh) E.O. Tursunov, K.Sh. Turdiyeva (Bosh muharrir o'rinbosari), A.M. Mannonov, D.A. Ahmedova, H. Rasulov S.A. Begmonov, H. Abidov, Z. Karimova, A. Xudayberdiyev</p>	<p>Gazeta Toshkent shahar matbuot va axborot boshqarmasida 29.12.2006-yil 02-0010-son bilan ro'yxatga olingan. Manzil: 700140, Toshkent-140, Bog'ishamol ko'chasi, 223 "XALQ NASHRIYOTI" XKda chop etildi. Manzil: Toshkent sh. Qorasaray ko'chasi, 316 uy. Tel.: (71) 242-0510; (95) 170-04-02; (99) 040-04-02. buyurtma adadi 110 nusxa, qog'oz bichimi A3. Gazeta institut hisobidan nashr etiladi va bepul tarqatiladi.</p>
---	---	--	---